

**TARBIYASI QIYIN O'SMILAR BILAN ISHLASH PEDAGOGIKASI.**

**Abdusalomova Mavluda Mansurjon qizi**

*Andijon davlar chet tillar instituti ingliz tili va adabiyoti fakulteti 104guruhi*

**Annotatsiya:** Tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashda ijtimoiy pedagogning o'rni va o'smirlardagi tarbiyasi og'irlikni keltirib chiqaruvchi omillar to'g'risida fikr yuritildi.

**Abstract:** The role of the social pedagogue in working with children with difficult upbringing and the factors causing difficulties in the upbringing of teenagers were discussed.

**Аннотация:** Обсуждены роль социального педагога в работе с детьми с трудным воспитанием и факторы, вызывающие трудности в воспитании подростков.

**Kalit so'zlar:** Tarbiyasi qiyinlik, psixologiya, o'smirlilik, pedagogik faoliyat, mikro muhit.

Bugungi kundagi psixologik qarashlar o'smirlar orasida tarbiyasi qiyin bolalar uchrab turganini ko'rsatmoqda. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ta'lif jarayonida ham bunday o'smir o'quvchilarning yo'q emasligi to'g'risida psixologik va pedagogik sabablar mavjud. Psixologlarning kuzatuvi va har qanday urinishlariga qaramasdan xulqi salbiy o'smirlar uchrab turadi. Har bir insonning xarakteri turlicha bo'lganidek, o'quvchilardagi nojo'ya xatti-harakatlari ham turlichadir. Shunday holatlarni hisobga olgan holda, har bir o'quvchi bilan yakkama-yakka ishlash texnologiyasi qo'llanmoqda. Ularning fe'l atvorigagi nuqsonlar, injiqliklar va salbiy holatlarni tuzatish va oldini olish yo'llari ilmiy asosda ishlab chiqilgan. Tarbiyasi qiyinlik vujudga kelishiga turli xil omillar ta'sir qilishi va keltirib chiqarishi mumkin.

Va shunga ko'ra turli xil guruhlarga bo'linushi mumkin:

Oilada ota-onasi va farzand o'rtasida samimi munosabatning bo'lmasligidir. Xalqimizda shunday bir gap bor: "Qush uyasida ko'rganini qiladi". Hamma oilada har xil vaziyat bo'ladi. Oilaviy nizolar, ajralishlar, otaning ichkilikka ruju qo'yishi kabi salbiy oqibatlar bolaning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Bunaqangi holatlar bolaning tarbiyasi ta'sir qilmasdan qo'ymaydi. O'smirlilik davrida ota-onasi va farzand o'rtasidagi munosabat qiyinlashishi mumkin. Bu davr ota-onasi uchun ham farzand uchun ham og'ir va murakkabdir. Bola o'smirlilik davrida mustaqil qaror qabul qilishni hoxlaydi va o'z fikrini to'g'ri deb hisoblaydi. Lekin ota-onalar bunday holatlarni osonlikcha qabul qila olishmaydi. Bunday paytda ular o'zlarini farzandiga keraksiz deb his qilishadi. Natijada oilada nizo kelib chiqishi mumkin. Bolalar o'zlarini kattalardek tutishi mumkin, leki ular har tomonlama ota-onasiga tobe bo'lishadi. Masalan ular moddiyva jiymoniylar tomonlama suyanishadi. Barcha muammolar shunday vaziyatlarda yuzaga chiqadi. O'smir bolalar o'zlarini shunday tutadilarki, dunyoda ulardan boshqa haq inson yo'qday. Ular doimo haq, boshqalar nohaq. Agarda ularning fikrlari boshqalar tomonidan ayniqsa ota-onalari tomonidan rad etilsa, fikrlari yanada qat'iy lashadi. Va

yana nizolarga sabab bo'ladi. Ota-onalar bolalarini fikrini noto'g'rilibini uqtirmoqchi bo'lishadi, lekin ular fikrida turib oladi. Ko'rib turganimizdek o'spirinlik davri shunaqa murakkab. Shu davrda sal nojo'ya harakatlar, arzimagan narsalar ham bolaning tarbiyasi og'ishiga sabab bo'lishi turgan gap. Bunday vaziyatlarda ota-onalar bosiqlik bilan bolani to'g'ri yo'lga chaqirishi, maslahatlashib qarorlar chiqarishi kerak bo'ladi. Ular farzandiga to'g'ri qaror chiqarishi uchun imkoniyat yaratishi kerak. Hamma ota-onalar farzandini muammolardan saqlashni hohlaydi. Lekin har doim ham bolasini ishiga aralashib turish shart emas. O'smir yoshda bola ko'chada yurishi, mактабдаги о'қиси, baholari bilan bog'liq qarorlarni o'zi yolg'iz qabul qilishni o'рганиши kerak. Agar yoshlikdan shunga o'рганмаса, unga erkinlik berilmasa, har doim unga kimdir hamroh bo'lishiga to'g'ri keladi. U inson keyinchalik qo'rkoq bo'lib qoladi. Hech qachon o'zi qaror qabul qila olmaydi. Shuning uchun hammasini hisobga olgan holda, bolaga ozgina erkinlik ham berishi kerakligi ko'zda tutilgan.

Shaxsga maktab faoliyati va ko'cha ko'ydag'i insonlarning ta'siri. O'smirlarning pedagogik jihatdan tarbiyasi ijtimoiy pedagogik hodisadir. Ularga maktab psixologiyasi va maktabdan tashqaridagi muhitlar ta'siri sezilarli darajadadir. O'smirlarni uyda, maktabda nazoratda ushlab turish mumkin. Ammo ko'cha ko'yda ularni bir maromda nazoratda ushlab turish murakkabdir. Chunki o'smirlar bo'sh vaqtlarini asosan ko'chada, do'stlar davrasida o'tkazishadi. Bunday paytda ularda insonlar bilan munosabat va ular o'rtasida bo'ladigan muloqot shakllanadi. Atrof muhitdan o'ziga kerak va keraksiz bo'lgan har qanday holatlarni qabul qiladi. Bu eng avval ularning tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday omillarga chek qo'yish uchun do'stlarni ham tanlashni bilishlari kerak. Inson har doim do'stga muhtoj. Qanday inson bilan do'stlashish esa insonning o'ziga bog'liq. Agarda farzand noqobil do'st tanlasa, ota onani tashvishga soladi va bunga chora qidira boshlashadi. Bunday paytda bolani uyga qamash, do'sti bilan uchrashishni ta'qiqlash bolada qarshilik uyg'otadi. Aslida ota ona farzandini kelajagini o'ylab shunday qiladi. Aytishadiku: "Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi"-deb. Farzandga shuni yotig'i bilan tushuntirib, boshqa jamoani yoki do'stni taklif qilishi maslahat berishi mumkin. Yokida noqobil do'stdan ayirish uchun bolasini u bilan birga o'tkazadigan vaqtlarida band qilishi ham samarali foyda beradi. Bunga majburlash foyda bermaydi. Shunaqangi atmosfera yaratish kerakki, xuddi bola o'zi tanlov qilganday his qilishi kerak.

Bola tarbiyasida bulardan tashqari maktabdagi o'qituvchi va o'quvchi munosabati ham asosiy ro'l o'ynaydi. Ba'zi holatlarda o'smir bolaning tarbiyasiga ota-onadan ham ko'proq o'qituvchi qayg'uradi. Ustoz otangday ulug' degan maqol bejiz emas. Shunday ekan ota-onalar farzandi oldida o'qituvchisi haqida hurmat bilan yaxshi munosabatda gapireshi kerak. Chunki ustozga bo'lgan munosabat yaxshilanib unda hurmat tuyg'usi paydo bo'ladi. Lekin ba'zi holatlarda ota onalar o'qituvchiga yaxshi munosabatda bo'lishmayapti. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida nizoli vaziyat kelib chiqsa, ota-onalar ustoz va o'quvchi o'rtasiga tushib vaziyatni chigallashtiryapti. Albatta bu bolaning tarbiyasi yanada qiyinlashishaga ta'sir qilmasdan qo'y maydigan holat emas. Aslida ora-onalar farzandini his-tuyg'ularini tushunib, fikrini eshitib to'g'ri yo'lga

boshlashi, uni har doim tushunib, qo'llab-quvvatlashlarini aytishi kerak. Bu yaxshi va samarali yo'ldir. Ustozi bilan bunday yomon munasabatda bo'lmasdan og'ir bosiqlik bilan gaplashib, farzandining tarbiyasi ruhiyati to'g'risida maslahatlashib muammolarga chek qo'yish zarur. O'qituvchi va o'quvchi munosabatni yaxshilash uchun o'sha yomon ko'rgan o'qituvchisiga qo'shimcha mashg'ulotlarga berishi ular o'rtasidagi munosabatlarga samarali natija beradi. Mana shunday vaziyatda inson yoqtirmagan insonlari bilan ham aloqa qilsa bo'lishini anglaydi. Har doim ortga chekinmasdan hohlamagan ishini qilishga harakat qilishni o'rganadi. Demak tarbiyani postive tomonga o'zgarishi uchun avvalo harakat va tashqi muhitning musaffoligi asosiy tayanchdir.

Tarbiyasi og'ir bolalar bilan ish olib borishda pedagog va psixologlarning o'rni beqiyos kattadir. Maktab ijtimoiy pedagogikasining asosiy muammosi tarbiyasi og'ir o'spirinlar hisoblanadi. Bu davr shakllanishi jarayonida nihoyatda katta ahamiyatga ega. Psixolog avvalo tarbiyasi qiyin o'spirinlar bilan ish olib borishda: o'spirin bilan aloqa o'rnatishi; u bilan yaxshi o'zaro munosabatlarni o'rganishi; uning reaksiyalarini, fikri, intilishlarini, qiziqishlari va kelajakdagi rejalarini o'rganishi kerak. Va bundan tashqari uni uzluksiz kuzatishi kerak. Tarbiyasi qiyinlarni o'rganishda ularga rasmlar ko'rsatishi, chizdirishi, turli kinolar qo'yib berishi mumkin. Shu yo'l orqali ularning fikrlashini, ruhiyatini bilib olish mumkin. Masalan, film qo'yib ularni kuzatish va film davomidagi ularning emotsiyalarini, ta'sirlanishi va qo'zg'alishlari orqali xulosalar chiqarishi mumkin. Har bir psixolog bolalar bilan ishlaganda ehtiyotkor bo'lishi talab etiladi. O'smir shaxsiyatiga tegadigan muomala qilish man etiladi. Suhbat davomida iliq psixologik iqlim, do'stona munosabat, qulay mikro muhit bo'lmog'i darkor. Bunday imkoniyatlardan unumli va samarali foydalanib o'spirinlik davrini bir me'yorda o'tkazib olish bu bir yutuqdir.

Yosh avlod kelajagimizning poydevori bo'lishiga bunday omillar ta'sir qilmasligi kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

- Boratov Sh.R. Maktab psixologi faoliyatining asosiy yo'nalishlari.//Xalq ta'limi.- Toshkent, 1993.2- son.- B.15-18.
- Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiyl psixologiya. T., 2010.